

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.S.Turdiyev**

O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar  
tahlili ..... 182

**B.E.Xusanov**

Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari ..... 187

**F.M.O'sarov**

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash  
mezonlari ..... 190

**F.F.Dadaboyev**

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq  
etishning nazariy-metodologik asoslari ..... 193

**Sh.Sh.Dadaxanov**

O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning  
ijtimoiy-falsafiy jihatlari ..... 201

---

**SIYOSAT****J.Q.Yusubov**

Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi ..... 206

**B.Yalgashev**

"Siyosiy falsafa" va "Siyosat falsafasi" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari ..... 210

**A.Xamdamov**

Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati ..... 214

---

**TARIX****B.A.Usmonov**

Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar ..... 219

**A.Н.Адыгезалов**

Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гуум ..... 224

**F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova**

To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni ..... 231

**A.H.Boltayev**

V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar ..... 235

**G'.R.Mirzayev**

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro  
ishonchga asoslangan hamkorligi ..... 239

**O.N.Nasirov**

Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi ..... 249

**O.I.Rajabov**

Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar ..... 253

**П.Х.Исмоилова**

Деятельность отделения русско-азиатского банка в Туркестане в конце XIX в начале  
XX века ..... 257

**H.S.Yusupov**

Otaniyozi Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyining mudarrislik faoliyati ..... 262

**Sh.Y.Oxunjonova**

Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining  
ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar) ..... 265

**A.R.Nurmatov, D.X.Boydedayev**

Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim ..... 272

**П.Х.Исмоилова**

Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки  
в XIX—XX веках ..... 276

**G.X.Xasanboyeva**

O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar  
(1950-1970 yillar) ..... 281

## FUQAROLIK JAMIYATI BILAN BOG'LIQ ZAMONAVIY KONSEPSIYALARING MOHIYATI

### СУЩНОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ КОНЦЕПЦИЙ О ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ

### THE ESSENCE OF MODERN CONCEPTS ABOUT CIVIL SOCIETY

**Xamdamov Adxam<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, o'qituvchisi

#### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada fuqarolik jamiyat massalalarini o'rganishdagi yangi nazariyalar ko'rib chiqiladi. Davlat institutlari va fuqarolik jamiyati munosabatlarining zamonaviy modellariga, ayniqsa liberal g'oyalarning ta'sir etishiga e'tibor qaratiladi.*

#### *Аннотация*

*В статье рассматриваются современные теории касательно изучения вопросов гражданского общества. Основное внимание уделяется новым теориям взаимодействия институтов государства и гражданского общества, влиянию либеральных идей на данный процесс.*

#### *Abstract*

*The article discusses modern theories regarding the study of issues of civil society. The main attention is paid to new theories of interaction between the institutions of the state and civil society, the influence of liberal ideas on this process.*

**Kalit so'zlar:** "fuqarolik jamiyati", "uchinchchi sektor", "davlat", "liberalizm", "minimal davlat".

**Ключевые слова:** "гражданское общество", "третий сектор", "государство", "либерализм", "минимальное государство".

**Key words:** "civil society", "third sector", "state", "liberalism", "minimal state".

## KIRISH

Fuqarolarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi masalalari XX asrga kelib chuqur nazariy o'rganila boshlandi. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati g'arb "aql markazlari"ning muhim tadqiqot obyektiiga aylanar ekan, mutaxassis va ekspertlar uning nazariy konstruksiylarini liberalizm g'oyalari, Yevropa neokonservativizmi, respublikachilik (kommunitarizm) va boshqa fundamental konsepsiylar bilan uyg'unlikda rivojlantirmoqdalar.

Fuqarolik jamiyati konseptual ahamiyat kasb etar ekan, uni chuqur tadqiq etish jarayonida davlatga nisbatan ta'sir mexanizmi sifatida unumli foydalanish mumkinligi yaqqol namoyon bo'ldi. Aynan ushbu omil fuqarolik jamiyatini, uning turli konsepsiylarini, mohiyatni jiddiy o'rganish lozimligini taqazo etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHЛИI

Tegishli konsepsiylar asosan g'arb mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, maqolada ular tomonidan yozilgan adabiylardan keng foydalanildi.

Ushbu konsepsiyalarni tizimli ravishda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq:

1. *Fuqarolik jamiyati "uchinchchi sektor sifatida"*. XX asrning ikkinchi yarmida fuqarolik jamiyatini hokimiyat va iqtisodiyot institutlaridan ajralib turadigan mustaqil ijtimoiy tuzilma sifatida tavsiflashga qaratilgan nazariyalar paydo bo'ldi (A. Yetsoni, R. Kornuell, F. fon Xayek va boshq.).

Ilm-fan sohasida uch sektorli modelni ishlab chiqishda Nobel mukofoti laureati F. fon Xayek alohida o'r'in tutadi, u davlatning butun sohasini xususiy va davlat sektorlariga bo'lishning nomuviqilagini isbotladi. Uning ta'kidlashicha, "jamiyat salomatligi uchun tijorat va davlat sektorlari o'rasisida uchinchi, mustaqil sektor mavjudligi juda muhim. Ushbu sektor, bizning fikr va g'oyalarimizni samarali bajarilishi uchun, ularni davlat zimmasiga o'tkazishi lozim bo'ladi" [1].

Amerikalik olimlar J. L.Koen va E.Arato o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi uchta, ya'ni: *siyosiy hamjamiyat* – partiylar hayoti, siyosiy tashkilotlar, davlat siyosati organlari, jumladan parlamentlarning faoliyati; *iqtisodiy hamjamiyat* – ishlab chiqarish va taqsimot bilan shug'ullanadigan tashkilotlar: firmalar, kooperativlar, shirkatlar va boshqalar faoliyati; *fuqarolik jamiyati* – institutsionalizatsiya jarayonida bo'lgan uyushmalar va tashkilotlar faoliyatidan iborat "davlatning uch qismli modelini" taklif qildilar [2].

## SIYOSAT

Bugungi kunda “uchinchi sektor” atamasi fuqarolik jamiyatining tarkibiy va institutsional asosini tashkil etuvchi nodavlat-notijorat tashkilotlarining (NNT) yig’indisiga aytildi.

2. *Fuqarolik jamiyati – shaxsiy manfaatlarni ifoda etish sohasi sifatida.* J. Kin, E. Gellner, A. Seligman kabi olimlar o‘z asarlarida shaxsiy manfaatlarni va shaxsiy huquqlarni sohasini mustahkamlash zarurligini, davlat aralashuvidan himoya qilish lozimligini ta’kidlaydilar. Xususan, A. Seligman ta’kidlaydi: “...fuqarolik jamiyati ko’ppartiyaviylik tizimi va fuqarolik huquqlaridan boshlab, shaxslarning volyuntarizmi va fuqarolik ruhi kabi bir qator belgilar bilan indentifikatsiya qilinadi”[3]. Uning fikricha, fuqaroning barcha fazilatlari turli oqimlar, maktablar tomonidan fuqarolik jamiyatini qurish uchun zarur komponentlar sifatida tan olinadi.

Mutaxassislar fuqarolik faoliyatining quyidagi asosiy shakllarini ajratib ko’rsatishadi: xayriya, volonterlik (ko’ngililik), ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni muhokama qilish, jamoat eshituvlari va jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish, hokimiyatga jamoaviy murojaatlar, mitinglar, namoyishlar, ish tashlashlarda qatnashish, shuningdek internet-ijtimoiy tarmoqlaridagi faoliyat va h.k. Xususan, R. Peyton xayriya ishlarini fuqarolik jamiyati mavjudligining asosiy prinsipi deb biladi[4]. Fuqarolarning faolligi darajasi ko’p jihatdan aholining madaniy, tarixiy va ruhiy xususiyatlariga, shuningdek, mavjud institutsional sharoitlarga bog’liq.

3. *Fuqarolik jamiyati – shaxs va davlat o’tasidagi kommunikatsiya sohasi sifatida.* Frankfurt ilmiy maktabi namoyandas Yu.Xabermas fuqarolik jamiyati shakllanishini tushuntiruvchi modellarning muhim konsepsiysi – oshkorlik (ochiqlik) konsepsiyasini ilgari surdi. U fuqarolik jamiyatini shaxs va davlat o’tasida joylashgan, ularning aloqasi amalga oshiriladigan ijtimoiy sohasi sifatida tushundi.

Xabermasning fikricha, ijtimoiy soha jamoatchilik fikrini erkin shakllantirishning zaruriy shartidir. Aynan fuqarolik jamiyati o‘zining muhim vazifasini – “jamoatchilik muhokamasi”ni samarali bajarishga imkon beradi [5]. Jamoatchilik muhokamasi haqida gap ketganda, Xabermas uning quyidagi sub’ektlarini alohida tilga oladi, bular: qahvaxonalar (hozirgi kundagi “Book kafe”lar shular jumlasidan) va klublar, gazeta va jurnallar, hokimiyatning vakillik organlari.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy soha doirasidan tashqariga chiqishi va uning siyosiy faoliyatga aralashishi mavzusi ilmiy jamoatchilikda munozara kasb etmoqda. Bir tomondan, zamonaviy hukmron G’arb konsepsiyasiga ko’ra, fuqarolik jamiyati siyosiy sohaga (umumi yechimlarni ishlab chiqishga) garatilgan fuqarolarning o’zaro hamkorligi sifatida belgilanadi, ammo bu shakllar siyosiy sohaga bevosita kiritilmagan. Fuqarolik jamiyati mohiyatan siyosiy bo’lImagen hamjamiyat ekanligini hisobga olsak, bu ta’rif odatda o’zini oqlaydi. Boshqa tomondan, shaxsiy manfaatlari muvofiq jamoaga birlashgan fuqarolar siyosiy manfaatlarni ko’zlashlari ham mumkin. Shuning uchun fuqarolik jamiyati doirasida siyosiy birlashmalar, xususan partiylar va siyosiy lashgan ijtimoiy harakatlar mavjud bo’lib, ular orqali fuqarolar davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etadilar. Demak, siyosiy soha fuqarolik jamiyati faoliyatining shunday sohasiki, uning chegaralari sezilarli darajada noaniqlik bilan farqlanadi.

Avtoritar va totalitar hokimiyat tizimlarida fuqarolik faoliyati safarbarlik xarakteriga ega bo’lib, hukmron rejim va uning mafkurasini qo’llab-quvvatlashga yo’naltiriladi.

4. *Fuqarolik jamiyati demokratik davlatdagи hokimiyatning legitimligi omili sifatida.* Bir qator tadqiqotchilar demokratik davlatda hokimiyatning legitimligini ta’minlovchi fuqarolik jamiyati institutlari bajaradigan beshta funksiyasini ajratib ko’rsatadilar. Bular davlat hokimiyati ustidan nazorat, amalda hokimiyatning hisobdorligini ta’minlash; ozchilikning manfaatlarni muvofiqlashtirish va himoyasini ta’minlash; ijtimoiy integratsiya, turli guruuhlar o’tasidagi qaramaqarshiliklarni yumshatish; siyosiy sotsializatsiya; davlatning va xususiy biznesning “qo’li yetmagan” sohalarda xizmatlar ko’rsatish.

Ta’kidlash joizki, ba’zi olimlar fuqarolik jamiyatini ilmiy kategoriya sifatida tan olmaydilar. Xususan, gollandiyalik tadqiqotchi D. van den Boomning fikricha, “fuqarolik jamiyati” tushunchasi hech qachon zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni tushuntiradigan yoki ta’riflaysidan ilmiy atama bo’lImagen. Turli talqinlar natijasida mazkur tushuncha noaniq, tushunarsiz va “yumshoq” materiyaga o’xshash bo’lib, o’ta moslashuvchanligi sababli uni deyarli hamma narsaga qo’llash oson[6]. Rus olimi P. Vanshteynning fikricha, “Real jarayonlarning ifodasi sifatida fuqarolik jamiyati tushunchasi noaniq va amordfir va ideal ibora sifatida “demokratik jamiyat” tushunchasining mavjudligi sababli ortiqchadir[7].

Fuqarolik jamiyatini demokratiyaning muhim elementi, tinchlik va barqarorlikning kafolati deb atash har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Ushbu fenomenni, ya'ni jamoat tashkilaotlarini faoliyatini tegishli tartibda muvofiqlashtirib turish maqsadaga muvofiq. Mazkur soha mutaxassis Sh. Bermanning fikricha, nafaqat zaif, balki kuchli fuqarolik jamiyati ham ijtimoiy rivojlanishning xavfli tendensiyalarini keltirib chiqarishi mumkin: demokratiyanı mustahkamlovchi omillar hisoblangan uyushmalar, aslida "ham demokratik, ham antidemokratik natijalarga olib kelishi mumkin"[8].

O. Enkarnacionning so'zlariga ko'ra, "fuqarolik jamiyatining demokratiyaga ta'siri, uni ijobjiy baholaganda ham, neytraldir. Fuqarolik jamiyati demokratiyaga yordam berishi mumkin bo'lsa-da, unga zarar yetkazishi va hatto-ki yo'q qilishga olib kelishi ham mumkin"[9].

Liberal-demokratik kuchlarning ko'plab vakillari uchun fuqarolik jamiyati manfaatlar uchun kurashish davlatga qarshi kurashish bilan belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, demokratik tizim doirasida davlat hokimiysi va fuqarolik jamiyati munosabatlari tegishli demokratik tartib-qoidalar bilan shartlangan muvozanat tamoyillariga asoslanishi kerak degan xulosaga kelish mumkin. Hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning muvozanati qarama-qarshiliklar va to'qnashuvlarning oldini olishga, fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasida murosa va kelishuvlarni topishga, demokratik o'zgarishlar va jamiyat uyg'unligiga o'tishga imkon beradi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fuqarolik jamiyatining tarkibiy elementlarini o'rganishda tizimli yondashuv metodikasi va qiyosiy tahviliga e'tibor qaratish o'z samarasini beradi. Zamonaviy fonda fuqarolik jamiyatini tizimlashtirishda ikkita yondashuv ustunlik qiladi: institutsional va tizimli.

Fuqarolik jamiyatini tizimlashtirishda institutsional yondashuv tarafdarlari (Ye. Arato, V. Gavrilov) ijtimoiy hayotni tashkil etish shakli sifatida ijtimoiy institut tushunchasiga asoslanadi. Institutsionalizm metodologiyasi fuqarolik jamiyatining o'zini ham, uning tarkibiy elementlarini ham institut sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Masalan, institutsional yondashuv har yili "CIVICUS fuqarolik jamiyati indeksi" – dunyo mamlakatlarida fuqarolik jamiyatining holatini baholash bo'yicha amaliy tadqiqot loyihasi" tomonidan asos qilib olingan.

Fuqarolik jamiyati institutlari umumiyy manfaatlar, ijtimoiy maqsadlar, iqtisodiy va siyosiy mustaqillikning mavjudligi, shuningdek, ularda fuqarolarning ishtiroy etishining ixtiyoriy asoslari bilan tavsiflandi. Shu bilan birga, rasmiylashtirilmagan institutlar qatoriga yoki Arato ta'biri bilan aytganda – "institutsionalistsiya jarayonidagi" tashkilotlarni ham kirlitsa bo'ladi. Ular jinoiy, ekstremistik elementlardan ajralib turadi (noqonuniy birlashmalar), ularni umumiyy manfaat va umumiyy maqsadlar va faoliyatining qonuniyligi birlashtiradi.

Ko'pgina olimlar tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari sifatida ko'rib chiqiladigan quyidagi birlashmalarini ajratish mumkin: nodavlat va notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va harakatlar, mustaqil ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalar, advokatlik, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari; xayriya jamg'armalari; nodavlat "aql markazlari"; davlat idoralari huzuridagi jamoat kengashlari; ijtimoiy aloqaning yangi shakllari; internet jamoalari va boshqalar.

Shu bilan birga, ayrim birlashmalarning fuqarolik jamiyati institutlariga mansubligi bo'yicha qarashlarda ayrim farqlar mavjud. Oila instituti, siyosiy partiyalar, diniy jamoalar, davlat ommaviy axborot vositalari, jamoat palatalari, davlat organlari huzuridagi maslahat kengashlari va aksiyadorlik jamiyatlarining fuqarolik jamiyati tashkilotlari qatoriga kiritilishi munozarali hisoblanadi.

Tizimli yondashuv fuqarolik jamiyatining ochiq, o'zini o'zi rivojlantiradigan tizim sifatida eng umumiyy fikrlarni beradi. Ushbu yondashuvning asoschilaridan biri T. Parsons jamiyatni "atrof-muhitga, shu jumladan boshqa ijtimoiy tizimlarga nisbatan o'zini o'zi ta'minlashning eng yuqori darajasiga yega bo'lgan ijtimoiy tizim turi" deb ta'riflagan". Tizimli yondashuvga muvofiq, fuqarolik jamiyati ma'lum bir tizimli xususiyatlarga ega: bu o'ziga xos ijtimoiy boshqariladigan tizim, ma'lum darajadagi avtonomiyaga va o'ziga xos tuzilishga, ochiqlik va moslashuvchanlikka, organik birlikka va ta'sir etish imkoniyatlarga ega.

Tizimli yondashuv tarafdarlari (A. Seligman, V. N. Kartashov, N. S. Gegedyush va boshqalar.) fuqarolik jamiyatining tuzilishini hayotning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot va ma'naviy quyi tizimlari (podsistema) shaklida ifodalaydi.

Siyosiy podsistemaga siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar (ekologlar harakati, turli siyosiy klublar), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini kiritish odatiy holdir.

## SIYOSAT

Huquqiy podsistema advokatura, nodavlat notariati va inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalari kabi fuqarolik jamiyati institutlaridan iborat bo'lib, ular inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladi, fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatadi.

Iqtisodiy podsistemaga, savdo-sanoat palatalari, banklar va iste'molchilar uyushmalari va boshqalar kiradi. Bular mulkdorlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning manfaatlarini himoya qilish bilan birga o'z oldiga foyda olishni maqsad qilmaydi.

Ijtimoiy podsistemaga o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishga hissa qo'shadigan fuqarolar birlashmalari kiradi, bular kasaba uyushmalari, xayriya jamg'armalari va tashkilotlari, nogironlar jamiyatlari, sport assotsiatsiyalaridir.

Ma'naviy podsistema ta'lif, madaniyat arboblari jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, etnik va diniy tashkilotlardan iborat bo'lib, ular insonning ma'naviy qadriyatlarni, manfaatlari va qiziqishlarini ro'yobga chiqarishga hissa qo'shami, fikrlar plyuralizmini, jamiyatdagi bag'rikenglikni ta'minlaydi.

Axborot podsistemi inson va jamiyatning ma'lumot olish ehtiyojni qondiradi, shuningdek, davlat va xalq o'rtafigi o'zaro aloqani qo'llab-quvvatlaydi. U mustaqil, nodavlat ommaviy axborot vositalarining barcha turlarini o'z ichiga oladi, bular qatoriga mustaqil jurnalistlar, blogerlar, bosma va elektron OAVlarni kiritish mumkin.

Demak turli mamlakatlarda turlicha, ya'ni – assotsiatsiyalar, nodavlat va notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, "uchinchchi sektor" deb nomlanuvchi jamoat birlashmalari fuqarolarning o'zlariga tegishli bo'lgan ijtimoiy masalalarni, siyosiy, iqtisodiy, madaniy ehtiyojlarini qondirishga imkon yaratadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtafigi munosabatlarning maqbul shakllarini izlash zamonaviy ijtimoiy fanlarning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu munosabatlar bugungi kundagi xavfsizlikni ta'minlash amaliyoti bilan ham bog'liqligini e'tibordan chiqarmaslik lozim.

Olimlarning davlat va fuqarolik jamiyati o'rtafigi o'zaro munosabatlarning siyosiy modellari va shakllarini o'rganishga bo'lgan yondashuvlarida ikkita tendensiya ustunlik qiladi, bular: qarama-qarshilik va hamkorlikdir.

Polshalik sotsiolog Ye. Vnuk-Lipinski munosabatlarning uch turini ajratib ko'rsatadi: fuqarolik jamiyati davlatga qarshi fenomen sifatida; fuqarolik jamiyati davlatning bir qismi sifatida; davlat fuqarolik jamiyatining muhim qismi sifatida. Munosabatlarning birinchi turi avtoritarizmdan demokratiyaga o'tayotgan davlatlar uchun xosdir. Ikkinci tur totalitar g'oyalari bilan bog'liq, bu yerda fuqarolik jamiyati davlatning vakolati va samarasi kam bo'lgan sohalardagi faoliyati bilan cheklanadi. Liberal nazariyaga yaqin bo'lgan uchinchchi tur esa, bir tomonidan, "minimal davlat" prinsipi, ikkinchi tomonidan esa, davlatning yordamchi roli prinsipi asosida talqin etiladi. Agar birinchi model doirasida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtafigi munosabatlar antagonistik xarakterga ega bo'lsa, qolgan ikki holatda bu hamkorlik, o'zaro bir-birini to'ldirish va uyg'un yashash munosabatlaridir.

Britaniyalik olim S.Chambers va AQShning Kaliforniya universiteti professori J. Kopsteyn fuqarolik jamiyati va davlat o'rtafigi munosabatlarga oid keng ko'lamli ilmiy qarashlarni tahlil qilib, quyidagi modellarni ajratib ko'rsatishadi:

- Fuqarolik jamiyati davlatdan ajralib turadi:* davlat strategik vazifalar va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash bilan shug'ullanadi, fuqarolik jamiyati odamlarni aniq maqsadlar va guruh manfaatlariga erishish uchun birlashtiradi.

- Fuqarolik jamiyati davlatga qarshi turadi:* u siyosiyashgan va amalda davlatga qarshi bo'lgan "agent" vazifasini bajaradi.

- Fuqarolik jamiyati xalq bilan muloqotda bo'ladi:* davlat fuqarolik jamiyatining ko'p sonli va xilma-xil talablariga javoban o'z harakatlarini tushuntiradi, oqlaydi, himoya qiladi va hisobot beradi.

- Davlatni qo'llab-quvvatlovchi fuqarolik jamiyati:* huquqiy davlat o'z vazifalarini samarali bajarishi uchun unga jamoat manfaati nuqtai nazaridan fikrlaydigan fuqarolarga tayanadi.

- Davlat bilan hamkorlik qiluvchi fuqarolik jamiyati:* davlat va nodavlat sektori hamkorlikda fuqarolarga ijtimoiy yutuq va imkoniyatlar va kerakli xizmatlarni taqdim etadi.

- Davlatni nazorat qiluvchi fuqarolik jamiyati:* model **global fuqarolik jamiyatini** nazarda tutadi, bunda NNTlar davlat chegaralaridan tashqariga chiqib, butun dunyo bo'ylab ommaviy harakatlarga olib boradi[11].

J. Koen va E. Aratoning so'zlariga ko'ra, fuqarolik jamiyati yoki uning ayrim aktorlarining iqtisodiyotga yoki davlatga nisbatan antagonistik munosabati, aynan davlat tomonidan vositachilik rolini bajara olmasligi yoki uning institutlari qaror qabul qilish jarayonlarini izolyatsiya qila boshlasalar orta boshlaydi.

Ushbu yondashuvlar zamonaviy fan va amaliyotda mavjud bo'lgan davlat va fuqarolik jamiyati o'rtaсидаги munosabatlarning to'liq ro'yxati emas. Shu bilan birga, huquqiy davlatni qurish sharoitida o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyati sheriklik modeliga, ya'ni bir tomonidan davlat organlari va boshqa tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligiga asoslangan bo'lishi kerak.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalarini sarhisob qilib, quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

fuqarolik jamiyati tushunchasi tarixan inson huquqlari va erkinliklari g'oyalariga asoslangan bo'lib, shaxslar, jamoalar va ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ta'minlaydi;

evolyutsion rivojlanishning barcha bosqichlarida davlat va fuqarolik jamiyati yaxlit jamiyatning o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi substansiyalari bo'lgan;

ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida demokratik huquqiy davlatning shakllanishi fuqarolik jamiyatining rivojlangan, turli xil jamoat tashkilotlarining keng tarmog'i bilan belgilanib, ularning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxs hisoblanadi;

olimlarning yondashuvlarida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtaсидаги o'zaro munosabatlarning ikki shakli – qarama-qarshilik va hamkorlik ustunlik qiladi.

Hamkorlik modeli milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtaсидаги munosabatlarning eng mos modeli sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq. Ammo fuqarolik jamiyati institutlariga tashqi omillarning ta'siri va bu omillarning har doim ham ijobjiy emasligini tan olgan holda ushbu sohani ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Хайек, Фридрих А. Право, законодательство и свобода: современное понимание либеральных принципов справедливости и политики. – М.: ИРИСЭН, 2006. – С.374.
- Коэн Дж., Арато Э. Гражданское общество и политическая теория. – М.: Издательство, 2003. – С.4.
- Seligman A. The Idea of Civil Society, Princeton: Princeton University Press, 1992. – Р.202.
- Payton R.L. Philanthropy: Voluntary Action for the Public Good. American Council on Education / Macmillan Publishing Company, 1988. – Р.87.
- Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society. Cambridge, 1989. P.95.
- Boom D. van den // Bundesrepublik Deutschland: Politisches System und Globalisierung. Munster etc., 2000. P.245-295.
- Ванштейн П.И. Гражданское и демократическое общество – знак равенства? //<https://wp.hse.ru/data/2012/02/08/1262530036/WP19201201.pdf>.
- Berman Sh. Civil Society and the Collapse of the Weimar Republic // World Politics. April 1997. P. 426-427.
- Encarnacion O.G. Tocquevilles Missionaries: Civil Society and the Promotion of Democracy // World Policy Journal. Vol. XVII. № 1. Spring. P.16.
- Simone Chambers and Jeffrey Kopstein. Civil Society and the State // The Oxford Handbook of Political Theory / Edited by John S. Dryzek, Bonnie Honig and Anne Phillips//New York: Oxford University Press 2006. – P. 363-378.